

2025-yil 15-dekabr

## “O‘zkimyosanoat” AJ jamoasi Gimnastrada bo‘yicha Prezident kubogining final bosqichida “Kompozitsiyaning o‘ziga xosligi” nominatsiyasida 1-o‘rinni egalladi



Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Sport vazirligi hamda O‘zbekiston Gimnastika federatsiyasi hamkorligida xotin-qizlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, ularni ommaviy sportga jalb etish, muntazam jismoniy faollikni hayot tarziga aylantirishga qaratilgan “Gimnastika barcha uchun” shiori ostida Gimnastrada bo‘yicha Prezident kubogi – 2025 musobaqalarining final bosqichi o‘tkazildi.



Unda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlardan 40 dan ortiq jamoa, jami 900 nafarga yaqin xotin-qizlar ishtirok etdi.

Musobaqada professional sportchilar bilan bir qatorda havaskorlar, mahalla faollari, uy bekalari, ishchi ayollar hamda turli tashkilotlar jamoalari qatnashdi.



Quvonarlisi, ushbu musobaqalarda "O'zkimyosanoat" AJ xotin-qizlari jamoasi faol ishtirok etib, yorqin chiqishi "Kompozitsiyaning o'ziga xosligi" nominatsiyasida 1-o'rinni egalladi.







**source:**

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-jamoasi-gimnastrada-bo-yicha-prezident-kub>